
**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIVLIK
KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRUVCHI METODLAR**

Shonazarova Ruhshona

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lism fakulteti

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

Bekimbetova Intizar Batirbekovna

Chirchiq davlar pedagogika universiteti

Boshlang'ich ta'lism fakulteti

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lism sifatini yanada yaxshilash va o'quvchilarning kreativlik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi metodlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lism, 4K modeli, interfaol metodlar, kreativlik, "Toshga rasm chizish" metodi, "Kreativ raqamlar va harflar" metodi, "Aralash ertaklar" metodi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы, способствующие дальнейшему повышению качества образования в начальных классах и формированию у учащихся навыков креативности.

Ключевые слова: Начальное образование, модель 4К, интерактивные методы, креативность, метод "Рисование на камне," метод "Креативные цифры и буквы," метод "Смешанные сказки."

Abstract: This article discusses methods that help further enhance the quality of education in primary grades and foster the development of students' creative skills.

Keywords: Primary education, 4K model, interactive methods, creativity, "Drawing on Stone" method, "Creative Numbers and Letters" method, "Mixed Fairy Tales" method.

Bugungi ta'lism tizimida o'quvchilarning kreativlik va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat san'at darslarida, balki, boshqa fanlarda: matematika ona tili va o'qish savodxonligi hamda tabiiy fanlarda ham juda muhim.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida malakatimizda 2030-yilga qadar ta'lism tizimini butunlay yangilash va uning mazmunini xalqaro ta'lism dasturlari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalariga moslashtirish vazifalari qo'yilgan. Mazkur vazifalar jarayonida boshlang'ich ta'lismni 2026-yilga qadar ta'lismning sifatli ko'rsatkichlarini yuksaltirish va uning samaradorligini oshilirish islohotlari belgilangan. Bu borada

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yida sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaroriga alohida vazifalar belgilangan.[1].

Bu vazifalar boshlang'ich ta'lism jarayonida yangicha xalqaro dasturlar va metodlarni joriy etishni taqozo qiladi. 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Angliya Kembrij kollejining 4K modeli bo'yicha o'rta ta'lum maktablari o'quvchilarining ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu birinchi o'rinda Prezident maktablari tajribasidan o'tgan hisoblanadi.

4K modeli o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi.

Kommunikatsiya-ta'lum sharoitidan foydalanish;

Kollaboratsiya-jamoa bo'lib ishslash;

Kreativlik-ijodiy yondashuv;

Kritisizm-tanqidiy fikrlash;

Ushbu tamoyillar asosida bir vaqtning o'zida bilim berish bilan birga ularning tasavvuri, tafakkuri, fikrashi va jamoa bo'lib ishslash ko'nikmasini rivojlantirishimiz mumkin. Bu esa ta'lum jarayonining yanada sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Kreativlik-bu o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashi, yangi g'oyalar yaratishi va muammolarini yechishda yangicha yondashuvlarni qo'llash qobiliyatidir. 4K modeli bo'yicha kreativlik muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarining ijodiy yondashuvlarini tarkib toptiradi. Buning uchun ularning layoqatini aniqlash, ijodiy rivojlanishini yo'lga qo'yish va mazkur jarayonning samaradorligini kuzatib borish muhim o'rinn tutadi[2]. Bu borada interfaol metodlar bizga yordam beradi.

Interfaol metodlar - bu o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ular o'rganish jarayonida faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashishini ta'minlovchi metodlar hisoblanadi. Ushbu metodlar o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, kreativligini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Quyidagilar shular jumlasidan:

Toshlarga rasm chizish metodi - bu kreativlikni rag'batlantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan qulay usuldir. Ushbu metod asosan bolalar va o'smirlar o'rtasida keng tarqalgan, lekin har qanday yoshdaggi odamlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu metod quyidagi bosqichlardan iborat:

Avval tosh tanlab olinadi. Tasavvurni rivojlantirish uchun bir nechta tosh tanlanadi. Toshlar turli o'chamda va shaklda bo'lishi mumkin.

Toshlarning sirtiga rasm yoki tasvir chiziladi. Bu tasvirlar oddiy bo'lishi mumkin, masalan, quyosh, daraxtlar, hayvonlar yoki abstrakt shakllar. Bu jarayon ijodiy fikrlar va his-tuyg'ularni ifoda etishga yordam beradi.

Rasm chizish uchun rangli bo‘yoq, markerlar yoki boshqa ijodiy materiallardan foydalaniladi. Ranglar yordamida his-tuyg'ularni ifodalash mumkin.

Har bir tosh uchun yaratilgan rasmni tahlil qilinadi. Bu rasmni nega tanlangani va bu o‘quvchi o‘zini qanday his qilayotgani bilan bog'liq bo‘lishi mumkin.

Yaratilgan toshlarni boshqalar bilan baham ko‘rish mumkin. Bu nafaqat ijodiy jarayonni yanada boyitadi, balki yangi g’oyalar va mulohazalarning olinishi imkoniyatini beradi.

Natijada: Toshlarga rasm chizish metodi ijodiy jarayonni qiziqarli va samarali qiladi. Bu usul yordamida o‘quvchi o‘z his-tuyg'ularini ifoda etishi va yangi fikrlar ishlab chiqishi mumkin. Shuningdek, bu faoliyat stressni kamaytiradi va ruhiy holatni yaxshilashga yordam beradi.

Kreativ harflar va raqamlar-bu o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirish uchun samarali metod hisoblanadi.

Bu jarayonda o‘quvchilar harflar va raqamlar yozib olishadi, so‘ng ulardan o‘zlari tasavvur qilgan boshqa shakllarni chizishadi. Ularning tabiat bilan munosabatlarini ham ushbu metod ochib beradi. Chunki o‘quvchilar harflar va raqamlardan tabiatda bor narsahodisalar, hayvonlar va o‘simliklarni hosil qilishadi.

Bu usul yordamida o‘uvchilarga bir xillikdan qochish, oddiy narsalarni ham o‘zgacha ko‘rishni o‘rgatishimiz mumkin. Bundan tashqari o‘quvchilarning qo‘l motorikasini ham rivojantiramiz.

Aralash ertaklar-bunda o‘quvchilarning ijodkorligi va jamoa bo‘lib ishlash qobiliyati rivojlanadi.

Birinchi navbatda, o‘quvchilarni kichik-kichik jamoalarga bo‘lib olamiz. Darslikdagi turli ertak qahramonlarini tanlab olamiz va o‘quvchilarga bu qahramonlar ishtirokida yangi ertak hosil qilish vazifasini beramiz. Ular o‘zaro fikr almashib yangi ertaklar hosil qilishadi va uni sahnalashtirishadi. Bu jarayon o‘quvchilar uchun juda qiziqarli va foydali.

Natijada o‘quvchilar jamoada ishlash orqali o‘zaro fikr almashishadi, uyalib sahna ko‘rinishida chiqishni xohlamaydigan o‘quvchilar ham o‘z tengdoshlari qatoriga qo‘shilishadi va sinf jamoasi faolligi oshadi.

Ushbu metodlar barcha fanlarda qo‘l keladi. Xulosa qilib aytganda an’anaviy tarzda olib boriladigan dars jarayonlariga qaraganda noan’anaviy dars jarayonlari ta’lim tizimining sifatli ko‘rsatkichlarini yuksaltirish va uning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni. // www.ziyonet.uz

2. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahurat.- Toshkent, 2006
3. Jabborova O. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4K modeli bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang'ich ta'lim metodikasida yangilanishlar – Toshkent – 2024
4. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Chirchiq, 2023
5. G'afforova G., Nizomiddin B. Kreativ fikrlash. – Chirchiq-2023